

№01-14/19
22.12.2022-й.

TASDIQLAYMAN
O‘zbekiston Respublikasi
“O‘zarxiv” agentligi Jamoatchilik
kengashi raisi



A.X. Ziyo

2022-yil 30-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi huzuridagi arxiv ishi
masalalari bo‘yicha Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
6-son bayoni

Raislik qiluvchi:

A. X. Ziyo

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Tarix instituti direktori, “O‘zarxiv” agentligi Jamoatchilik kengashi raisi

Qatnashdilar:

Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

Taklif etilganlar:

Sh. Sadikov

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari

O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi boshqarmalari boshliqlari, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlari vakillari

KUN TARTIBI

I. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligining natijalari hamda amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida;

II. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2022-yilga belgilangan ish rejasi ijrosi borishi to‘g‘risida

Kun tartibidagi masalalar bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **qaror qilindi:**

I. O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligining natijalari hamda amalga oshirilgan ishlari to'g'risida

(A. X. Ziyov, Sh. Sadikov, D. Zakirova, L. Mirzayev, A. X. Ziyov)

1. O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilganligi haqidagi L. Mirzayevning axboroti, xususan, Axborotda Agentlikning ichki imkoniyatini inobatga olgan holda, Agentlikning 2021-yil 27-avgustdagi 311-son buyrug'iga asosan O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sektori tashkil etilganligi, Agentlikning ichki nazorat sektori tomonidan 1 ta xizmat tekshiruvini o'tkazilib, qonuniy qaror qabul qilish uchun o'rnatilgan tartibda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organga yuborilganligi;

Agentlik va uning tizim tashkilotlari tomonidan 2021-2022-yillarda 76 ta uchrashuv, seminar va davra suhbatlari o'tkazilgan bo'lib, mazkur tadbirlarda sohaning deyarli barcha xodimlari ishtirok etishgan, 7 ta ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot-tashviqot ishlari (bayonot, video rolik va boshqalar) olib borilgan.

2019-2022-yilda Agentlikdan 20 nafar va uning tizimidagi Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmasi hamda O'zbekiston milliy arxivlarining 3 nafar xodimlari ISO 37001 bo'yicha sertifikatga ega bo'lganlar.

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarda halollik siyosatini ta'minlash, xodimlar va umuman jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog'ida Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash hamda arxiv sohasini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida "O'zarxiv" agentligining 2021-yil 27-oktabrdagi 367-son buyrug'i bilan quyidagi 10 ta hujjat:

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy

xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlar xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomasi;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarda kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomasi;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomasi;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom; O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlar xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash o'tkazilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar birlashgan xaritasi;

"O'zarxiv" agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarda Korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi va tizimidagi tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ishlab chiqilib, tasdiqlangan.

Shuningdek, yuqoridagi hujjatlar Agentlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

Agentlikda korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun tashkil aloqa kanallari (<https://archive.uz/corruption>, uzarchive@archive.uz, [@antikor_arxivbot](https://t.me/antikor_arxivbot), [www.fb.com/uzarxiv](https://www.facebook.com/uzarxiv)) tashkil etilgan bo'lib, ularning manzillari to'g'risidagi ma'lumotlar Agentlikning www.archive.uz rasmiy veb saytiga joylashtirilgan.

Agentlikning rasmiy veb-saytining bosh sahifasida "Ochiq ma'lumotlar" bo'limi tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zarxiv" agentligida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sektoriga yil oxiriga qadar korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish;

tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlar o'rtasida targ'ibotni kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha videoroliklar, targ'ibot materiallarini ko'paytirish;

kelib tushayotgan normativ hujjatlarni puxta o'rganib chiqish hamda barcha davlat arxivlariga uning mazmun-mohiyatini yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

II. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2022-yilga belgilangan ish rejasini ijrosi borishi to‘g‘risida

(A. X. Ziyo)

(A. X. Ziyo, U. Yusupov)

3. Jamoatchilik kengashining 2022-yilga belgilangan 12 ta banddan iborat ish rejasining bajarilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Jamoatchilik kengashi raisining o‘rinbosari Sh. Tursunboyev belgilangan ish rejasining dekabr oyida to‘liq bajarilishini;

2022-yil yakunlari bo‘yicha “O‘zarxiv” agentligi hamda Jamoatchilik kengashi faoliyatining samaradorligini oshirishga hamda 2023-yilga belgilangan ish rejasini ishlab chiqilishini ta’minlasin.

5. Agentlikka faoliyatning ochiqqligini yanada ta’minlash, fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda “Inson-jamiyat-davlat” tamoyili asosida faoliyatni davom ettirish, arxiv hujjatlaridan foydalanishda davlat va jamaotchilik nazoratini yanada kuchaytirish tavsiya etilsin.

6. Kengash yig‘ilishi bayonnomasi qarorlari ijrosini ta’minlash va nazorat qilish Kengash raisi o‘rinbosari Sh. Tursunbayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash kotibi
Sh. Tursunbayev

“O‘zarxiv” agentligi huzuridagi arxiv ishi masalalari bo‘yicha Jamoatchilik kengashi a‘zolari ro‘yxati.

1. **Azamat Ziyo** Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, tarix fanlari doktori, professor Jamoatchilik kengashi raisi
2. **Shuxrat Mirayimovich Tursunboyev** “O‘zarxiv” agentligi direktorining davlat tili bo‘yicha maslahatchisi Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari-Kengash kotibi
3. **Anvarjon Orifjonovich Aliyev** “O‘zarxiv” agentligi direktorining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi Jamoatchilik kengashi Ishchi organi rahbari
4. **Abdurasul Maxmudovich Yaxshiboyev** O‘zbekiston Milliy arxivi bo‘lim mudiri Kengash a‘zosi
5. **Anvarjon Akramjonovich Abdumuxtorov** O‘zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi Kengash a‘zosi
6. **Zulayxo Abdurazzakovna Akramova** Qonunchilik palatasi deputati Kengash a‘zosi
7. **Akmal Jumaqul o‘g‘li Amirov** Tashqi ishlar vazirligi arxiv mudiri Kengash a‘zosi
8. **Muazzamxon Xursanovna Umarova** Mahalla va oilani qo‘llabquvvatlash vazirligi bosh mutaxassisi Kengash a‘zosi
9. **Nodira Bahodirjanovna Karimova** O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi devoni bo‘lim mudiri Kengash a‘zosi
10. **Lola Shavkatovna Arifjanova** Vazirlar Mahkamasi idoraviy arxivi mudiri Kengash a‘zosi
11. **Zumrad Bayxurazovna Rahmankulova** O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi Kengash a‘zosi
12. **Ozoda Raxmatjonovna Jahonova** O‘zbekiston Qizil yarim oy jamiyati kadrlar boshqarmasi inspektori Kengash a‘zosi
13. **Umida Alimdjanovna Teshabayeva** A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori Kengash a‘zosi
14. **Ulbosin Abduaxatovna Abdumalikova** “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi direktori maslahatchisi Kengash a‘zosi
15. **Gulnora Adashevna To‘rayeva** O‘zbekiston Respublikasi IIV axborot markazi maxsus fondlar bo‘limi boshlig‘i Kengash a‘zosi
16. **Nargis Qosimova** Jurnalist, bloger Kengash a‘zosi
17. **Shavkat Turobovich Raxmatullayev** “Tarixchilar jamiyati” nodavlat notijorat tashkiloti rahbarining o‘rinbosari Kengash a‘zosi
18. **Maqaddas Do‘stmatov** Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi ijrochi direktori Kengash a‘zosi
19. **Davron Fatxullayevich Fayzullayev** “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi vakili-Qatag‘on qurbonlari muzeyi arxiv va fond bo‘limi boshlig‘i Kengash a‘zosi
20. **Nodira Maxmudovna Musayeva** O‘zbekiston Faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llabquvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi “Nuroniylar” jamg‘armasi bo‘lim boshlig‘i Kengash a‘zosi
21. **Muxayyo Sirojiddanovna Isakova** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti Bosh ilmiy xodimi, O‘zbekiston Milliy arxivi katta ilmiy xodimi Kengash a‘zosi

